

ESHONXO`JA BIN MAXMUDXO`JA TOSHKANDIYNING "XULOSAT UR-RAVZOT US-SAFO" ASARI

Shoxrux Karamatov Mustofaqulovich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy
tadqiqot metodlari yo`nalishi 1-kurs magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eshonxo'ja Bin Mahmudxo'ja Toshkandiyning Hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar bilan boshlangan. Hamda Mirxondning Ravzat us-safo asari haqida ma'lumotlar berilgan. Bu asarning to'liq nomi "Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va ul-muluk va ul-xulafa" bo'lgan

Kalit so'zlar: Tarjimayi holi, xonliklar, Toshkent hokimligidagi voqealar, ijtimoiy-siyosiy voqealar, Temuriylar hukmronligi.

Аннотация: Эта статья начинается с информации о жизни и творчестве Эшонходжи бин Махмудходжи Тошканди. Также приведены сведения о Равзате ус-сафо Мирхонда. Полное название этого произведения: «Раузат ус-сафа фи сиират уль-анбия ва уль-мулук ва уль-хулафа».

Ключевые слова: Биография, ханы, события в ташкентской администрации, общественно-политические события, правление Тимуридов.

Annotation: This article begins with information about the life and works of Eshonhoja Bin Mahmudhoja Toshkandi. Information is also given about Mirkhond's Ravzat us-safo. The full title of this work is "Rawzat us-safa fi siirat ul-anbiya wa ul-muluk wa ul-khulafa"

Key words: Biography, khans, events in the Tashkent administration, socio-political events, Timurid rule.

Eshonxo'ja Toshkandiy — toshkentlik alloma va tarixchi. Uning to'la nomi Abu Ubaydullo Muhammad ibn Sultonxo'ja bo'lib, Eshonxo'ja qori Toshkandiy sifatida mashhur. Eshonxo'ja Toshkandiy fanda tarixchi sifatida tanilgan. Uning „Xulosat al-ahvol“ („Qiska tarjimai hol“) degan asari bo'lib, unda muallif o'z tarjimayi holini Qo'qon xonligi, xususan, xonlikning Toshkent hokimligida yuz bergan voqealarni tasvirlaydi. Muallif o'zi yashagan davrdan 1865-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni bayon etib ketadi. Asar 240 varaqdan iborat[1]. Eshonxo'ja Toshkandiyning „Xulosat al-ahvol“ asari muqaddima, to'rt bob va xotimadan iborat. Muqaddima, birinchi bobi muallif tarjimayi holiga oid bo'lib, bunda u, asosan ota-onasi haqida to'xtaladi, yoshlik davri va madrasada o'qiganligi haqida ma'lumotlar bayon qiladi. Ikkinchi bob yigirma besh varaq, uchinchi bob o'ttiz besh varaq bo'lib, undan so'nggi oxirgi bob yaxlit

kelgan, xotima ajratilmagan. Unda muallif hayoti va mamlakatda yuz bergan siyosiy voqealar bayon etiladi.

Xulosada 1865-yil voqealari haqida to'xtaladi. Muallif xonlikda mirza va soliq yig'uvchi bo'lib ishlagan. Keyinchalik u amaldan chetlatilgan. Shu borada birmuncha mablag' to'plab, ma'lum miqdorda yer egasi bo'lib ham qoladi. Tarjimayi hol sohibi xonlik bilan xalq o'rtasidagi shaxs bo'lgan. Shu jihatdan uning bayon etgan voqealari ichida xalq ommasining ahvoli haqida ham bevosita va bilvosita ma'lumot berilishi tabiiy. U ko'proq tarixchi sifatida Toshkent va Qo'qon xonligi tarixiga oid ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Asarning ilk muallifi Mir Muhammad ibn Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy — Mirxond (1433-1498) o'rta asr tarix fanining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biridir. Mirxondning otasi Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ham zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lib, Temuriylar hukmronligi davrida Buxorodan Balxga kelib qolgan.

Mirxond 1433-yili Balxda tug'ilgan bo'lsa-da, umrining deyarli ko'p qismini Hirotda o'tkazdi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida nabirasi Hondamir "Xulosat ul-axbor" kitobida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Uning yozishicha, Hazrat Navoiy Mirxondga juda katta moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatgan, o'zining "Ixlosiya" xonaqosidan bir hujra ajratib bergan va undan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qilgan. Mirxond bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlagan. 1497-yilning bahorida og'ir kasallikka chalinib, 1498-yilda olamdan o'tgan. Asarni uning nabirasi Xondamir davom ettirgan.

Bu asarning nomi "Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va ul-muluk va ul-xulafo" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimayi holi haqida jannat bog'i") bo'lib, undan dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan. "Ravzat us-safo" muqaddima, 7 ta jild, xotima va jug'rofiy qo'shimchadan tashkil topgan.

Asar rangin va jozibali tilda, sodda va ravon uslubda yozilgan bo'lib, ilk sahifalardanoq o'quvchining e'tiborini o'ziga tortib oladi. U juda ko'p ibratli, ta'sirli, qiziqarli voqealarni o'z ichiga oladi. Asar tili va uslubiga ko'ra, o'z davrining bebaho adabiy yodgorligi hisoblanadi.

Mazkur bebaho asarning parchalari fransuz, lotin, shved, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilingan. Uzoq vaqt davomida ushbu asar yevropaliklar uchun Sharq tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblangan.

Asarning nodir qo'lyozmalaridan biri Sankt-Peterburgda, D-203 raqami ostida Rossiya Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. 1608-yilda ko'chirilgan, 233 varaqdan iborat bu qo'lyozmaning ayrim sahifalariga oltin suvi yugurtirilgan. Mazkur kitobda Tohiriylar davridan to Amir Temurning davlat tepasiga

kelishiga qadar bo‘lgan voqealar (820—1370-yillarda) bitilgan. 6—8-iyun kunlari Sankt-Peterburgda o‘tadigan “O‘zbekiston madaniy merosi – xalqlar va mamlakatlar o‘rtasida muloqotga yo‘l” Ikkinchi xalqaro kongressi ishtirokchilari anjuman doirasida ushbu nodir qo‘lyozmani ham o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishlari mumkin.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Manbalar xazinasi” bo‘limida “Ravzat us-safo” asari qo‘lyozmasi 344-raqam ostida saqlanadi. Qo‘lyozmaning muqova qismida naqshinkor unvon mavjud bo‘lib, unda oq, qora, ko‘k, qizil, sariq, binafsha rang va tilla ranglardan foydalanilgan. Qalin kartondan sharqona uslubga ko‘ra yasalib, ustiga to‘q qizil rangli qog‘oz qoplangan. Tayaki va dastaki qismlar yashil rangli qog‘ozdan ishlangan. Ustki qismida sahhofning tang‘asi bosilgan. Asar 332 varaqdan iborat bo‘lib, varaq o‘lchami 30x18 hamda matn o‘lchami 20x10ni tashkil etadi. Qo‘lyozma fors tilida qora siyoh bilan nasta‘liq xatida yozilgan. Muhim so‘zlar qizil siyoh bilan ajratib ko‘rsatilgan. Qo‘lyozma yaxshi holatda saqlangan. Ammo, ba‘zi sahifalarda qora va sariq dog‘lar mavjud.

Mir Muhammad ibn Sayyid Burhonuddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy – Mirxond 1433-yilda Balxda ziyolilar oilasida tug‘ilgan, 1497-yilda og‘ir kasallikka chalinib, 1498-yilning 22-iyun kuni vafot etgan.

Manbalarda olimning hayoti va faoliyati haqidagi ma‘lumotlar juda kam. Shunisi ma‘lumki, Mirxond O‘rta asr Sharq xalqlari tarixi bo‘yicha taniqli olimlardan hisoblanadi. Uning ota-bobolari Buxoroda yashagan bo‘lib, fiqh ilmida zamonasining ilg‘or olimlari sifatida tanilgan. Jumladan, Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy (vafoti taxminan 1300-yil) fiqh ilmida peshqadam olim bo‘lgan. Shuning uchun unga “Toj ash-shari‘a” (“Shariat toji”) nomi berilgan. Ahmad al-Mahbubiy Sharqning mashhur fiqh olimi Sayyid Burxonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asariga “Viqoya ur-rivoyat fi-masoil ul-Hidoya” (“Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar”) nomli sharh yozgan.

Mirxondning yana bir ajdodlaridan Ubaydulloh ibn Mas‘ud al-Mahbubiy (vafoti 1346) “Toj ash-shari‘a soniy” (“Ikkinchi shariat toji”) nomi bilan tanilib, “Sharh ul-viqoya”, “An-nihoya muxtasar ul-viqoya” nomli mashhur kitoblar yozib qoldirgan. Mirxondning otasi – Sayyid Burhonuddin Xovandshoh ham o‘z davrining bilimdon kishilaridan bo‘lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga kelib qolgan va o‘sha yerda vafot etgan.

Tarixchi Xondamirning ma‘lumotiga qaraganda, Alisher Navoiy o‘ziga tegishli bo‘lgan “Ixlosiya” xonaqosidan bir hujra ajratib, Mirxondan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qiladi. Mirxond bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlaydi. So‘ng umrining oxirida taxminan bir yil Gozirgohda yashaydi. Mirxond o‘zining faoliyati davomida tarix ilmi bilan mashg‘ul bo‘lib, ko‘proq jahon osori-atiqalarini tadqiq qilish bilan shug‘ullandi.

Mirxondning “Ravzat us-Safo” (“Sof jannat bog‘i”) yoki “Ravzat us-safo fi-siyrat al-anbiyo val-muluk va xulafo” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va halifalarning tarjimai holi haqida sof jannat bog‘i”) nomli asarida dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan. Ushbu asar XIX asrda qayta ko‘chirilgan. “Ravzat us-Safo” asari muqaddima, yetti jild, xotima va geografik qo‘shimchalardan iborat.

Mazkur bebaho asarning parchalari fransuz, lotin, shved, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilingan. Uzoq vaqt davomida asar yevropaliklar uchun Sharq tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib hisoblangan.

Asarning nodir qo‘lyozmalaridan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari institutida D-203 raqami ostida saqlanmoqda. Asar o‘sha davrdagi ehtiyoj hamda talab asosida fors tilida yozilgan. U o‘zida mashhur: Tabariyning “Nizomut-tavorix”, Muhammad bin Ishoqning “Ravzat-ul hubob” (“Hubob bog‘i”), Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”), Hofiz Ibn Kasirning “Bidoya-nihoya”, Imom Abul Hasan Faryobiyning “Usuli jome‘a” (“Jamoat usuli”), Nosiriddin Bayzoviyning “Tafsiri Bayzoviy” asarlardagi tarixiy jarayonlarni o‘ziga xos ifoda etgan. Shu bilan birga mazkur asarda tarixchi va roviylar – Abu Ali Ja‘far Ya‘qub al-Isfahoniy, Muhammad bin Jabrir Tabariy, Muhammad ibn Jarir Tiriyy va Hofiz Abrur rahmatullohi alayh, Siddiq Akbar, Hofiz Abru, Sa‘d ibn Jabir, Zahhokning nomlari tilga olingan.

Shu bilan bir qatorda Mirxondning “Ravzat us-Safo” asarida bugungi kunda musulmonlar uchun muqaddas qadamjoldan biri hisoblangan Makka shahrida joylashgan “Safo”, “Marva” hamda “Arofat” tog‘lari haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan.

Asarda dunyoning yaratilishidan to Sosoniy Yazdigard III (632-651) davrigacha o‘tgan tarixiy voqealar, Muhammad (s.a.v.) va birinchi to‘rt xalifa davrida bo‘lib o‘tgan voqealar, o‘n ikki imom tarixi, Ummaviyya va Abbosiyya xalifalari; Abbosiylar bilan zamondosh bo‘lgan sulolalar (Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston); Mo‘g‘ullar, Chingizxon, uning avlodi, Eron va ba‘zi qo‘shni mamlakatlar va ulardan keyingi Amir Temur davrigacha yashagan sulolalar tarixi; Amir Temur va temuriyzoda Sulton Abu Sa‘id o‘limigacha (1469) bo‘lib o‘tgan voqealar hamda Sulton Husayn Boyqaro va farzandlari tarixi (1523), shuningdek, boshqa ko‘pgina bayon etilgan hodisalar Qur‘on oyatlari, hadislar hamda bir qancha mo‘tabar kitoblar misolida yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Sab‘ai sayyor. Mukammal asarlar to‘plami. 20-jildlik. -T.: Fan, 1992. 10-jild
2. Hasanov C. Navoiyning yetti tuhfası. -T.: Adabiyot va san‘at, 1991.
3. Мадаев О. Навоий сұхбатлари. -Т.: Укитувчи, 2018.

4. Мухиддинов М. Нурли калблар гулшани. -Т.: Фан, 2007.
5. Сирожиддинов С., Юсупова Д., Давлатов О. Навойишунослик. Т.: Тамаддун,
6. Султонмурод Олим. "Навойи -ёшларга. -Тошкент, 2008.
7. Тохир Малик, "Одамийлик мулки" -Т. : "Шарк ". 2014.
8. Мухиддинов М. К. Хусрав Дехлавий суз фазилати бобида. POLISH SCIENCE JOURNAL ISSUE 6 (28) PART 2 INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL. 97-103
9. Хасанова М. Алишер Навойининг «Х,илолия» касидасида етти сайёра тимсоли. Суз санъати халқаро журнали, 2020 йил 2-сон, 158-164-бетлар